



The Reflection of National Mentality in Proverbs

Sabokhat BOZOROVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

language,
culture,
proverb,
horse,
national mentality,
linguoculturology,
cultural code,
value.

ABSTRACT

This article substantiates how national mentality is expressed and reinforced through language, and how the culture, fundamental spiritual values, moral standards, and centuries-old life experiences of a people are reflected as a semantic structure through language, especially in proverbs. The reflection of national mentality in Uzbek folk proverbs containing the "horse" component is analyzed using a linguocultural approach.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp69-74>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maqollarda milliy mentalitetning aks etishi

Kalit so'zlar:

til,
madaniyat,
maqol,
ot,
milliy mentalitet,
lingvomadaniyatshunoslik,
madaniy kod,
qadriyat.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy mentalitetning til orqali ifodalanishi va mustahkamlanishi, til vositasida, ayniqsa, maqollar orqali, xalqning madaniyati, asosiy ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari va ko'p asrlik hayotiy tajribalari semantik struktura sifatida aks etishi asoslanadi. "Ot" komponentli o'zbek xalq maqollarida milliy mentalitetning aks etishi lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Отражение национального менталитета в пословицах

Ключевые слова:

язык,
культура,
пословица,

АННОТАЦИЯ

В статье обосновывается, что национальный менталитет выражается и закрепляется посредством языка, в частности через пословицы, в семантической структуре которых отражаются культура народа, основные духовные ценности,

¹ Senior Lecturer, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

лошадь/конь,
национальный
менталитет,
лингвокультурология,
культурный код,
ценность.

нравственные критерии и многовековой жизненный опыт. На основе лингвокультурологического подхода анализируется отражение национального менталитета в узбекских народных пословицах с компонентом «лошадь/конь».

KIRISH

Til milliy ong va mentalitetning muhim kodi, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ongi, madaniyatining yorqin aks ettiruvchisi sifatida qoraladi. Maqollar esa tilning obrazli, barqaror va tarixiy xotirani saqlovchi shakli hisoblanadi. Ularda xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, e'tiqodi, mehnatga munosabati, oila, jamiyat, axloq va odob bilan bog'liq qarashlar o'z ifodasini topadi. Har bir millatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, xalqona tafakkur va ruhiyatidan kelib chiqqan holda shakllangan barqaror, obrazli va semantik jihatdan boy til birliklari bo'lgan maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ishonchli madaniy manbalaridandir. Maqollar til vositasida madaniy xotirani saqlaydi, xalqning ongini shakllantiradi va avloddan avlodga uzatadi. O'zbek maqollarida milliy mentalitetning ifodalanishi orqali xalq tafakkurining o'ziga xos modeli vujudga keladi. "Ot" obrazi bu modelda qadimiy dunyoqarash, turmush tarzi va ruhiy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Maqollarimizda "ot" obrazining keng qo'llanishi xalqning hayot tarzi, madaniyati, qadriyatlari va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq.

"Mentalitet (nemischa mentalität<lot.mens, mentis – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxslarning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet – xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differentsiatsiyasini aks ettiradigan kategoriya. Mentalitetlar turli masshtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo-intellektlarini namoyon qiladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi" [1:243]. Xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari, turmush tarzi va ruhiy olamining umumlashgan shakli bo'lgan milliy mentalitet o'zlikni anglash, voqelikka munosabat, qadriyatlarga bo'lgan yondashuvda namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Maqollar tilning eng barqaror, obrazli va qadimiy qatlamini tashkil qilib, xalqning ruhiy olami, ijtimoiy ongi va madaniy arxetiplarini ifoda etadi. Maqollar mazmuniga chuqur nazar tashlar ekanmiz, ularda xalqning dunyoqarashi, tushunchalar tizimi, axloqiy mezonlari, mehnatga munosabati, nasl-nasab, qadr, do'stlik, sadoqat, sabr-toqat, donolik kabi mental tushunchalar obrazli va barqaror shaklda aks etadi. Bu esa, o'z navbatida, xalq tafakkurining o'ziga xos modelini yaratadi. Bu model tildagi maqollar, iboralar va metaforik tuzilmalar orqali qayd etiladi, saqlanadi va uzatiladi. "Xalq tajribasi asosida shakllanib, uning ma'naviy dunyosi, voqea-hodisalarga munosabatini o'zida mujassamlashtirgan paremiologik birlik sifatidagi maqollar ayni paytda mazkur xalqning mental xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ular zamirida mujassam g'oyalar doimo insonlar uchun tarbiya o'chog'i bo'lib xizmat qilib kelgan, ular, hech bir shubhasiz, maqollarga tayanganlar" [2:42]. Maqollar xalq hayoti, ruhiyati va tajribasini ifoda etuvchi lingvistik birlik, mentalitetni saqlovchi madaniy kod hamda tafakkurning obrazli modeli sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, o'zbek xalq maqollari orqali vujudga kelgan milliy tafakkur modeli xalqning o'z-o'zini anglash, baholash va qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazish mexanizmidir.

“Lingvomadaniyatshunoslikda: til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, ixcham poetik shakldagi hikmatli ibora; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi” [3:53] maqol hisoblanadi. O‘zbek maqollari xalq tafakkurining konseptual modeli bo‘lib, til orqali milliy ruhiyatni kodlaydi, anglatadi va tarbiyalaydi.

Qadriyatlar modelining tildagi ko‘rinishi bo‘lgan maqollar xalqning mental, axloqiy va estetik qarashlarini obrazli, metaforik ifoda etadi. “Zoonim komponentli maqollarda jonzotlarning tabiiy belgi-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, inson tabiati yoritilgan. Shaxsga xos xususiyatlarning zoonimlar timsolida tasvirlanishi obrazlilikka, ta’sirchanlikka xizmat qiladi. Shaxs tavsifida qo‘llangan zoonimlar umumiy yoki xususiy baho semalari asosida insonning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritishi bilan xarakterlanadi” [4:24]. Masalan: *Ot olsang, otasini surishtir; Tulpor – biyadan, Mard – enadan; Otdan ola ham tug‘ar, qora ham; Odam bo‘lar yigit odatidan ma‘lum, Tulpor bo‘lar qulun – muchasidan* singari maqollarda naslga e’tibor, ijtimoiy ishonchlik qadriyati; *Ot kuchini karvonda ko‘r, mard kuchini – maydonda; Ot oyog‘idan topar, Odam – qo‘lidan; Aqlining oti ham horimas, To‘ni ham to ‘zimas; Hunar to‘ygizar, Ot mindirib, to‘n kiygizar; Mard xotinin qaritmas, Botir otin horitmas; Marddan ot qolur, Nomarddan – dod; Otni ham maydonda sina, Erni ham maydonda sina; Yo‘rga otning yo‘li bo‘lar, Jo‘rtoqining sho‘ri bo‘lar; Ot bo‘lguncha, toy ham bo‘lar; Toy mingan ot ham minar; Shoshib suringandan Asta yurib otdan o‘zgan yaxshi; Yaxshi ot keyin chopar; Qanoat qilsang, qorning to‘yar, Beqanoat otini so‘yar* kabi maqollarda amaliy baholash, mehnatning samarasiga tayanish qadriyati; *Yaxshi ot – jonga sherik, Yaxshi it – molga sherik; Og‘a-ini totuv bo‘lsa, ot ko‘p, Opa-singil totuv bo‘lsa, osh ko‘p; Er boshiga ish tushsa, Suyab otga mindirar; Er boshiga ish tushsa, Etik bilan suv kechar, Ot boshiga ish tushsa, Suvliq bilan suv ichar; Ot – yigitning yo‘ldoshi; Ot – yigitning qanoti; Yaxshi ot jonga sherik, Yomon ot – molga; Yaxshi ot – ko‘pniki; Do‘st otini minib yur, manzilingga yetasan; Otasi boshqa ot bermas; Otasi yov ot bermas* maqollarida xalqimiz tomonidan e’zozlanadigan sadoqat, do‘stlik, ishonch kabi qadriyatlar ifodalanganini ko‘rish mumkin. “Ot” komponentli maqollarda quyidagi qadriyatlar ko‘proq uchraydi:

QADRIYAT	MAQOLLAR
Nasl, asliyat	Ot olsang, otasini surishtir; Ayg‘ir qanday bo‘lsa, ot shunday
Vatanparvarlik	Otangning oti o‘zguncha, Ovulingning toyi o‘zsin; El – qo‘ngan yerda, Ot – to‘ygan yerda; El qo‘ngan yerni bilar, Ot to‘ygan yerda tinar
Mehnatsevarlik	Hunar to‘ygizar, Ot mindirib, to‘n kiygizar; Qo‘ydek yuvvosh bo‘l, Otdek yuguruk; Yaxshi ot oyog‘idan ozar; Yaxshi ot to‘rvasini orttirar, Yomon ot – qamchisini
Sadoqat, do‘stlik	Do‘st otini minib yur, manzilingga yetasan; Yaxshi ot – jonga sherik, Yaxshi it – molga sherik; Yaxshi ot jonga sherik, Yomon ot – molga
Mardlik	Ot kuchini karvonda ko‘r, Mard kuchini – maydonda; Otni ham maydonda sina, Erni ham maydonda sina; Ot bo‘lsa, maydon topilar, Ot bo‘lmasa, maydon chopilar; Marddan ot qolur, Nomarddan – dod; Er boshiga ish tushsa, Etik bilan suv kechar, Ot boshiga ish tushsa, Suvliq bilan suv ichar; Er boshiga ish tushsa, Suyab otga mindirar; Ols yo‘l otni sinar, Og‘ir yo‘l mardni sinar; Ols yo‘l otni sinar, Og‘ir kun – xotinni

QADRIYAT	MAQOLLAR
Tajriba	Ot surinib yo'l tanir, Er surinib – el; Ot aylanib qozig'ini topar, Er aylanib yozig'ini topar; Ot aylanib qozig'ini topar, Suv aylanib – yorig'ini; Toy qoqilib ot bo'lar, Ot bo'lguncha lat yeyar; Har kim ham chaqilar, Yaxshi ot ham qoqilar
Mehmondo'stlik	Qo'noqqa osh ber, otiga – yem; Ot boqsang – uloqqa, Qo'y boqsang – qo'noqqa
Qanoat	Qanoat qilsang, qorning to'yar, Beqanoat otini so'yar; Ot bo'lmaganda eshak ham ot; Ot topguncha eshak min; Ot topilguncha oyoq ham ulov
G'amxo'rlik	Otini ayagan yo'lda qolmas, Elini siylagan – cho'lda; Otni ayagan ot minar, To'nni ayagan to'n kiyar; Yem berib boqqan otga, Qamchining keragi yo'q; Ozig'in otning ozig'i kam; Ot oriqlikda ko'rimsiz, Qiz – yetimlikda; Ot to'rvadan qariydi; Otni yem bilan hayda Otingni ayasang, yo'lga qarab yur; Boq otingni arpa bilan, Boqar qazi-qarta bilan; Otni boqsang, ot qilasan, Yovni quvsang, mot qilasan
Keksalarni qadrlash	Qari ot ko'p yo'l bilar; Yaxshi odam qarisa ham, so'zi aynimas, Yaxshi ot qarisa ham, yurishi aynimas
Ehtiyotkorlik	Bir minarga ot berma; Yomg'irda ot tanlama, Hayitda – qiz; Ola butaga ot berkitma; Ot ayiling mahkam bo'lsa, Oting tuvlab ne qilar; Kishanli ot – o'z oting, Tushovli ot – bo'z oting; Bekor otning boshi o'tlar, Bog'liq bo'lsa, yaxshi o'tlar; Qoziqsiz ot turmas; It qopmas, Ot tepmas dema; Ot ham berma, Otingni ham ko'rsatma; Otingni yaxshi ko'rsang, ayilini mahkam tort; Sinalmagan otning sirtidan o'tma; Qamchi berma yaxshi bo'lsa otingga, Ishonmagin miltiq bilan xotinga; Ot minsang o'ylab uzoqni, Bilib yur yo'ldagi tuzoqni; Ot olma piyodaning maslahati bilan, Xotin olma bo'ydoqning maslahati bilan; Ot olsang, minib ol, Xotin olsang, ko'rib ol; Ot hurkkan yeridan o'tmas, Er – qo'rqan yeridan
Yaxshilik	Yomonga el bo'lguncha, Yag'ir otga bel bo'l; Yomonning oti bilan uloq olguncha, Yaxshining eshagida otquloq ol; Yaxshi ot yod qoldirar, Yomon ot lat qoldirar; Yaxshi otga qamchi kerakmas, Yaxshi qizga – sovchi
Ishonch	Oriq degan yomon toy, Yozga chiqib ot bo'lar; Ot bozori – baxt bozori; Yaxshi ot keyin chopar; Ot bosganni toy bosar; Ot o'rnini toy bosar, Ota o'rnini – o'gil; Ot topganga qamchi topilar
Qadr	Ot xo'rlagan toy minar, Toy xo'rlagan – tayoq; Ot qadrini bilmagan yayov o'tar, Yor qadrini bilmagan – yesir; Ot qadrini bilmasa, yayov ko'rar jazosin, El qadrini bilmasa, yovlar berar jazosin; Yoli qalin eshakdan, Yag'ir bo'lsa ham ot yaxshi, Qadr bilmas qarindoshdan Yaqindagi yot yaxshi
Ahillik	Og'a-ini totuv bo'lsa, ot ko'p, Opa-singil totuv bo'lsa, osh ko'p; Otadoshim, otga min, Otasi boshqa, otdan tush; Og'a-ining yomonlab, qani tuqqan topganing, Arg'umoqni yomonlab, qani tulpor topganing?
Uzoqni ko'zlash	Daryoga ot solmasdan oldin kechuvini top; Ot olmay oxur tuzat; Ot minib yaqinni ko'zlaguncha, Tuya minib uzoqni ko'zla

Qadriyatlar maqollarda semantik kod sifatida saqlanadi. Bu kod esa madaniy ongni barqarorlashtiradi, avlodlararo bog'liqlikni ta'minlaydi va xalq tafakkurining barqaror modelini yaratadi. "Har bir xalqning milliy tafakkurida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar ta'siri natijasida shakllangan jihatlar mavjudki, u shu xalqning ruhiyati, mentaliteti, xarakterini ifodalaydi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti rivojini ta'minlashda muhim o'rin tutadi" [5:130-131]. Shuning uchun ham maqollarni o'rganish xalq ruhiyatini tahlil qilishdir. "Maqollarda ot zoonimi ijobiy va salbiy baho ifodalash uchun qo'llangan. Aksariyat o'rinlarda ijobiy baho vositasi sifatida ishlatilgan: *Otning o'limi* – *itning bayrami*; *Ot qarisa* – *oxurda*, *it qarisa* – *chuqurda* kabi maqollarda ot zoonimi antropozoomorfizm sifatida mard, doim o'zgalarga yaxshilik qilib kelgan kishilarni

baholab kelgan. Matnda ot>it oppozitsiyasi orqali insondagi fazilat hamda illatlarga xalq munosabatini ko'rsatishda o'rinli foydalanilgan. *Oxur-chuqur* kabi nutqiy zidligi til egalari lisoniy manzarasida *oxur* leksemasining obro'-e'tibor ma'nosida gavdalanishini, *chuqur* leksemasining salbiy baho semasida voqelanishini ko'rsatadi (*Birovga chuqur qazima, bir kun o'zing yiqilasan*)" [6:131]. Ba'zi maqollarda esa *ot* zoonimidan salbiy baho ifodasi uchun foydalanilganini ham kuzatish mumkin. "Bu jarayonda tuya, it zoonimlariga qarshi qo'yilgan: *ot* → tuya, *ot* → it. *Ot mingan otasini tanimas, Toy mingan – og'asini* ot "martaba" ma'nosida kelgan. *Ot – toy* munosabatida yosh tafovuti mavjud bo'lib, martaba darajasi ham farqlangan. *Ot* so'zi ijobiy ma'noda qo'llangan bo'lsa-da, shaxsdagi salbiy fe'l-atvorni ifodalashga xizmat qilgan" [7:101].

Xalq tafakkurining ifodaviy vositasi bo'lgan til, ayni paytda, semantik tizim ham. Ayniqsa, maqollar orqali xalqning asrlar davomida shakllangan asosiy qadriyatlari, axloqiy tamoyillari, hayot falsafasi, ijtimoiy tajribalari barqaror va ramziy shaklda tilga kodlangan bo'ladi. Madaniy kod xalq tafakkurida qadriyatlar, axloqiy paradigmalarining timsollarida mavjud bo'ladi. "Muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar, artefaktlar hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi" [3:50] bo'lgan madaniy kod madaniy mazmun va uning shakli o'rtasidagi aloqani ta'minlashga xizmat qiladi. "Madaniy kodlar lingvomadaniyat vakillari ongidagi muayyan tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi, shu sababli ma'lum bir madaniyatga xos obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'ladi" [3:50]. Maqollar madaniy kodlarning asosiy saqllovchisi hisoblanadi. Ular madaniy tajriba va ijtimoiy ong mahsulini qisqa, obrazli va barqaror shaklda saqlaydi. Buni "ot" komponentli maqollar misolida ham ko'rish mumkin:

№	MAQOL	MADANIY KOD
1	El – qo'ngan yerda, ot – to'ygan yerda	Vatanparvarlik, farovonlik
2	Yolg'iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham, dong'i chiqmas	Jamoaviylik
3	Ot oyog'idan topar, odam – qo'lidan	Mehnat, nasiba
4	Yomon ot oxur buzar, Yomon it egasini uzar	Yomonlik, noshukurlik
5	Yaxshi otga qamchi kerakmas, Yaxshi qizga – sovchi	Tarbiya
6	Ot kuchini karvonda ko'r, Mard kuchini – maydonda	Mardlik
7	Ot bo'lsang, choparsan, it bo'lsang, qoparsan	Taqdir
8	Oting yaxshi bo'lsa, bu dunyoning farog'i, Xotining yaxshi bo'lsa, bu dunyoning charog'i	Baxt, omad
9	Otni ham maydonda sina, Erni ham maydonda sina	Sinov, ishonch
10	Qari ot ko'p yo'l bilar	Tajriba va donolik

Maqolni to'g'ri tushunish uchun u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni bilish talab etiladi. Masalan, *Osh-otliniki, to'y – to'nliniki* maqolini olib ko'raylik. "Bunda "osh" deganda, vafot etgan odamning "yigirma"si, "yil"i munosabati bilan ko'pchilikka beriladigan katta

ma'raka oshi nazarda tutilgan. Bunday ma'rakaga uzoq-yaqindan kambag'allar emas, albatta, boy va amaldorlar otga minib, qimmatbaho va ko'rkam kiyimlar kiyib, savlat to'kib kelardilar. Alohida izzat-ikrom ham, joyning to'ri ham, oshning sergo'sht, seryog'i ham o'shalarga ravo ko'rildirdi. Kambag'al, yo'qsillarga esa past nazar bilan qaralardi. Mazkur maqolni shu tengsiz holatga nisbatan kinoya tarzida aytganlar" [8:301]. Maqoldagi ot mavqe, martaba; to'n esa boylik ramzidir. Tariximiz, marosimlarimiz haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan kishining bu maqolni tushinishi oson emas. "Inson, uning fe'l-atvori, xulqi bilan bog'liq zoomorf obrazlar o'zni va atrof dunyoni o'rganishning qudratli vositasi bo'lgan. Atrof dunyoni kuzatib, uni o'z amaliy tajribasiga taqqoslar ekan, inson ongida hayvonlar xulqining ichki determinatsiyasini aniqlash: ularning bir-biri bilan munosabati, ta'siri, xulqi va boshqalarni solishtirish, ya'ni borliq voqelikni baholash jihatidan o'zlashtirish sodir bo'ladi, bu jarayon olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi" [9:36]. "Ot" LMGi o'zbek xalq maqollarida ijobiy xarakter-xususiyatni belgilovchi omil sifatida 11 ta; mo'tadil xarakter-xususiyatni belgilovchi vosita sifatida 3 ta; salbiy xarakter-xususiyatni belgilovchi vosita sifatida 11 ta semani namoyon etadi [10:203].

XULOSA

"Ot" komponentli maqollarda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy xotirasi, iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy qadriyatlari aks etadi. Ular tilning madaniy kod sifatidagi funksiyasini yorqin namoyon etadi: asrlar davomida xalq ongida shakllangan qadriyatlarni saqlaydi, keyingi avlodlarga yetkazadi. Milliy mentalitetning barqaror va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi maqollar orqali xalqimizning hayot falsafasi, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajribasi aniq va ixcham ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
2. Xolmanova Z., Valiyeva G., Muhammadiyeva D. O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – Toshkent: Mahalla va oila, 2022.
3. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
4. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.
5. Бахронова Д. Олам манзарасининг миллий-маданий ва лингвокогнитив категорияланиши. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2021.
6. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021.
7. Komilova G. O'zbek tilidagi maqollarning aksiologik tahlili. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
8. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2018.
9. Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалида). Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017.
10. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. докт... (DSc) дисс. – Самарқанд, 2019.